

Nodavlat notijorat tashkilotlarini soliqqa tortish



NNTni SOLIQQA TORTISH

Qonunchilikda notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo'lgan yuridik shaxs Soliq kodeksi maqsadida notijorat tashkilot deb e'tirof etiladi, agar:

- daromad olish maqsadiga ega bo'lmasa;
- daromatlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamasa.
(SKning 58-moddasi)



NNTlar:

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq,
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i,
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni

faqat notijorat faoliyat doirasida foydalaniladigan ko'chmas mulk, yer uchastkalari va suv resurslariga nisbatan soliq **to'lamaydi**.

QQS soliq stavkalari, hisoboti va to'lash muddatlari



Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va to'lash muddatlari

Soliq to'lovchilar soliq hisobotini o'zlari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o'tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart.

Soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



Notijorat tashkilotining quyidagi daromadlariga soliq **solinmaydi**:

- 1) notijorat tashkilotlarining ta'minoti va ushbu Kodeksning 48-moddasida ko'rsatilgan ustav faoliyatini amalga oshirishi uchun maqsadli tushumlar;
- 2) kursdagi ijobiy farq summasining kursdagi salbiy farq summasidan ortiq qismi;
- 3) aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad.

(SKning 318-moddasi)



Foyda solig'i stavkasi **15** foiz qilib belgilangan.
Kalendar yil soliq davridir.



Alohida hisobi mavjud bo'lmagan va (yoki) ulardan **maqsadli foydalanilmagan** maqsadli mablag'lar tarzidagi daromad (bundan budget to'g'risidagi qonunchilik normalari qo'llaniladigan budget mablag'lari mustasno) foyda solig'iga soliq solish maqsadida jami daromadga kiradi. (SKning 297-moddasi)



Maqsadli tushumlarga notijorat tashkilotlarni ta'minlash va ularning ustavda belgilangan faoliyatini yuritishga yo'naltirilgan tushumlar (bundan aksiz to'lanadigan tovarlar tarzidagi tushumlar mustasno) davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida bepul kelib tushgan, shuningdek boshqa yuridik va (yoki) jismoniy shaxslardan kelib tushgan, mazkur oluvchilar tomonidan maqsadli foydalaniladigan tushumlar kiradi.

(SKning 48-moddasi)



Soliq hisobotini taqdim etish -_soliq davrining yakunlariga ko'ra taqdim etiladi. Bunda o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromad mavjud bo'lmagan taqdirda soliq hisobotini taqdim etish talab qilinmaydi. (SKning 339-moddasi)


Soliqni to'lash tartibi – soliq davri yakunlari bo'yicha, tegishli soliq davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. (SKning 340-moddasi)

Soliq to'lovchining jami daromadi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti deb hisoblanadi.

Soliq stavkasi **12** foiz qilib belgilangan.

Kalendar yil soliq davridir.

Soliq agentlari uchun hisobot davri bir oydir.



Soliq hisobotini taqdim etish har oyda, soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi soliq organiga hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay

Soliqni to'lash tartibi

To'lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to'lovchiga daromadlarni to'lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay soliq agenti tomonidan to'lanadi.

NNTlarni ijtimoiy soliq bo'yicha soliqqa tortish



Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

Soliq stavkasi **12** foiz qilib belgilangan.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil **oyi** hisobot davridir.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organlariga har oyda hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliqni to'lash tartibi

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.